

**O‘zbekiston**  
**Metama’lumot**  
**Qatnov yo‘llarining uzunligi**

Ishlab chiqilgan sana: 01.05.2020

Oxirgi yangilangan sana: 24.09.2021

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistika ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi 2021- yil 11- avgustda tasdiqlangan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017- yil 2- sentabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul, shuningdek ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika organlari, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistikasi organlari singari, o‘z vakolatlari doirasida davlat statistik hisobotlarini, ma‘muriy yozuvlarni va davlat statistik kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa organlarning hisobotlari ma‘lumotlarni, shuningdek, ularga berilgan tushuntirishlarni so‘rash va olish huquqiga ega.

2017- yil 12- sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5054- son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar XVJning axborot almashish tizimlari doirasiga to‘g‘ri keladigan va Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT) muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil aprel oyida “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4273- sonli qarori qabul qilinib, mazkur qarorga asosan Davlat statistika qo‘mitasi davlat organlari va tashkilotlarining O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalidagi ro‘yxatni shakllantirish, yuritish va yangilash bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas‘l bo‘ib hisobladi.

Davlat statistika organlarining mustaqilligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy

statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796- sonli qarori bilan statistik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ishonchligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlash bo'yicha 2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirish milliy strategiyasi tasdiqlandi.

### **0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonunning 9- moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistika sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi va statistikani rivojlantirishni muvofiqlashtiruvchi rasmiy statistika sohasidagi vakolatli davlat organi bo'lib hisoblanadi.

Davlat statistika organlari statistik kuzatuvlar o'tkazish, rasmiy statistik ma'lumotlarni shakllantirish va tahlil qilish maqsadida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi organlarning axborot tizimlari bilan integratsiyani amalga oshiradi; milliy statistika tizimi doirasida rasmiy statistikani muvofiqlashtirilgan tarzda tarqatish choralari ishlab chiqadi.

Milliy statistika tizimining bir qismi bo'lgan boshqa rasmiy statistika ishlab chiqaruvchilari statistik ma'lumotlarni yaratish va vakolatli davlat organi bilan ma'lumot almashishni ta'minlash uchun mas'ul bo'linmalar tuzadilar.

Rasmiy statistikani ishlab chiqaruvchilar va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar vakolatli davlat organiga mavjud statistik va ma'muriy ma'lumotlarni statistik dasturlarda belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadilar.

Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikani ishlab chiqish, ishlash va muvofiqlashtirish bo'yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi.

Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

### **0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi**

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonunning 29- moddasiga muvofiq, rasmiy statistikani ishlab chiqarish uchun yig'ilgan, qayta ishlangan va saqlanadigan statistik ma'lumotlar, agar ular jismoniy yoki yuridik shaxslarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalashga va ular to'g'risidagi individual ma'lumotlarni oshkor qilishga imkon bersa, maxfiy hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomda (2017- yil sentyabr, 690- son,) Davlat statistika qo'mitasi maxfiylik masalalarini, shu jumladan bank siri saqlanishining oldini olish uchun xavfsizlik choralari ko'rishi ko'zda tutilgan.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonunning 35- moddasiga muvofiq, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, boshqa shaxslarning statistik metodologiyani shakllantirishga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan, maxfiylik qasamyodiga rioya qilishlari va o‘z vazifalarini bajarishda ularga berilgan hech qanday ma‘lumotni oshkor qilmasliklari shart. Belgilangan vaqtda ularga mas‘uliyat to‘g‘risida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslikka bo‘yicha shartnomaga imzolashi shart.

#### **0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish**

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy Komissiyasining (BMT EIK) Biznes jarayonlarining umumiy statistik modeliagi (BMSP) sifat menejmenti va metadata boshqaruvini qo‘llab-quvvatlovchi biznes statistik jarayonlarini ro‘yxatga amal qiladi.

Respondentlarning ma‘lumot berishini ta‘minlash uchun davlat statistika organlari o‘z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar, boshqa bo‘limlar va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalarini hamda filiallaridan so‘rov yuborish va olish, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, davlat statistik kuzatuvini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar (ularning rivojlanishining istalgan bosqichida), shuningdek, hisobotlarga ilova qilingan tushuntirishlar va ulardan statistik maqsadlarda foydalanish huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonasi, muassasa va muassasalardagi statistik ma‘lumotlarning ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma‘lumotlarning to‘liqligi va xolisligini ekspert tahlilidan o‘tkazadi, statistik ma‘lumotlarning buzilish holatlarida esa ularni tuzatish uchun zarur ko‘rsatma beradi va tegishli tuzatishlar kiritadi.

## **0.2 Resurslar**

### **0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish**

Ma‘lumotlarni shakllantirishda Markaziy apparatda 2 nafar xodim va har bir hududiy statistika boshqarmalarining xizmatlar sohasi statistika bo‘limlarida 1 nafar xodim shug‘ullanadi.

Statistik ma‘lumotlarni shakllantirish bo‘yicha berilgan vazifalarni bajarishda xodimlar soni yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma‘lumotga ega va har 2 yilda kamida bir marta O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshiradilar.

Har bir ish joyi shaxsiy kompyuter bilan ta‘minlangan, dasturiy ta‘minot muntazam ravishda yangilanib turadi.

Taqdim etilgan moliyaviy resurslar Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarni

bajarish uchun yetarli.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida” qonunning 6- moddasiga asosan, mustaqillik, tushunarlilik, shaffoflik, aniqlik, ishonchlilik, beg‘arazlik va xolislik, statistik maxfiylik, dolzarblik davlat statistikasining asosiy tamoyillari bo‘lib hisoblanadi.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonunga (27- modda) ko‘ra, rasmiy statistikani ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy ma‘lumotlaridan faqat statistik maqsadlarda umumiy statistikani tuzish maqsadlarida foydalaniladi.

Shaxsiy ma‘lumotlarni davlat organlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xalqaro tashkilotlar, tergov, nazorat, sud, ma‘muriy qarorlar yoki jismoniy va yuridik shaxslar yoki uy xo‘jaliklari bilan bog‘liq boshqa maqsadlarda foydalana olmaydi.

#### 1.1.3 Statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

### 1.2 Shaffoflik

#### 1.2.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonunga (6- modda) ko‘ra, davlat statistikasining asosiy tamoyillari mustaqillik, ochiqlik va oshkoralikdir. Statistik ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tarqatish shartlari O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va normativ hujjatlariga kiritilgan. Mazkur qonunchilik hijjatlari veb-saytlarda joylashtirilgan bo‘lib, jamatchilik uchun ochiqdir. “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonun (2021- yil) Qo‘mita saytida

([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Shuningdek, qonun Oliy Majlis byulletenida qayta ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasiga (norma), shuningdek, Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) sayti ma'lumotlar bazasiga joylashtirilgan.

## **1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari chiqarilishidan oldin ulardan foydalana olmaydi. Davlat statistika organlari statistik ma'lumotlarni tarqatishda mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (Qonunning 35- moddasi). Faqatgina Qo'mita raisi statistik ma'lumotlarni e'lon qilinishidan oldin ularga kirish huquqiga ega.

## **1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

## **1.2.4 Usuliyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

## **1.3. Axloq me'yorlari**

### **1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konsepsiya va tushunchalar

#### 2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

“Aloqa kanallarining uzunligi” indikatori - bu transport aloqasi yo‘lining uchastkalari kilometrlarining umumiy uzunligi. To‘plamni tashkil etuvchi alohida jo‘natmalari uchun yig‘ish sanasida aniqlanadi.

### 2.2 Statistik qamrov

#### 2.2.1 Statistik qamrov

##### 2.2.1.1 Ma’lumotlarning statistik qamrovi

Ma’lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o‘z ichiga oladi.

Ushbu ko‘rsatkich yirik korxonalar tomonidan taqdim etiladigan statistik hisobot ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

##### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Istisnolar yo‘q.

##### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyoti hisobga olinmaydi.

### 2.3 Tasniflash/sectorlar bo‘yicha taqsimlash

#### 2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo‘yicha taqsimlash

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar va shaharlar bo‘yicha taqsimlanadi.

Asosiy hisob birligi – institutsional birlik.

### 2.4 Hisobga olish asoslari

#### 2.4.1 Baholash

“Aloqa kanallarining uzunligi” indikatori - bu transport yo‘llari uchastkalarining kilometrlardagi umumiy uzunligi.

#### 2.4.2 Hisobga olish asosi

Ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun ma’lumotlar idoraviy statistik hisobotlaridan shakllantiriladi.

### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Ko'rsatkichlar yillik davrda hisoblanadi.

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

#### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Ko'rsatkichni hisoblash uchun ma'lumot manbai bo'lib, yirik korxonalar uchun statistik hisobot va idoraviy buxgalteriya hisobining dastlabki ma'lumotlari hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2012' yil 25- sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reestri har tomonlama va doimiy yangilanib turadigan korxonalar statistik tekshiruvlarini o'tkazishga asos bo'ladi.

#### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

"Aloqa kanallarining uzunligi" indikatori - bu transport kommunikatsiyalari liniyalarining umumiy uzunligi. Tarmoqni tashkil etuvchi alohida bo'limlarning uzunliklarini yig'ish yo'li bilan aniqlanadi.

"Aloqa kanallarining uzunligi" indikatorining statistik qamrovi:

- yirik tashkilotlar uchun har yili;
- har yili davlat statistik hisoboti va idoraviy buxgalteriya hisobi asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni e'lon qilish davri: har yili hisobot davridan keyin 6 oydan oshmasligi kerak.

#### 3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi bilan tartibga solinadi.

Ma'lumotlarni shakllantirish har yili hisobot davridan keyin 5 oydan oshmasligi kerak.

### 3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

#### 3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Olingan ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi darajasida tahlil qilinadi, majburiy nazorat va tekshiruvdan o'tkaziladi. Ma'lumotlarda xatolar aniqlansa, ular abatta manbalardan qayta aniqlastiriladi.

Manba ma'lumotlari boshqa tegishli ma'lumotlar manbalari bilan solishtirish uchun tahlil qilinadi.

### **3.3 Statistika usullari**

#### **3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari**

Ko'rsatkichni hisoblash uchun tayanch va joriy davrlar ma'lumotlari taqqoslanadi.

#### **3.3.2 Boshqa statistika jarayonlari**

Hisob-kitoblarda xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

### **3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash**

#### **3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash**

Ko'rsatkichni hisoblash uchun tayanch va joriy davrlar ma'lumotlari taqqoslanadi.

#### **3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash**

Asosiy oraliq ma'lumotlardagi mumkin bo'lgan tafovutlar tahlili o'tkaziladi tafovutlarni bartaraf etish uchun va ma'lumotlar tuzatiladi.

#### **3.4.3 Yakuniy statistika ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish**

Agar, avval e'lon qilingan ma'lumotlarda farq bo'lsa, keyingi nashrlar vaqtida o'zgartirishlar kiritiladi.

### **3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili**

#### **3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish**

Agar, avval e'lon qilingan ma'lumotlarda farq bo'lsa, keyingi nashrlar vaqtida o'zgartirishlar kiritiladi.

## **4. Amaliy yaroqlilik**

### **4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi**

#### **4.1.1 Davriylik**

"Aloqa kanallarining uzunligi" ko'rsatkichlari yillik hisobot ma'lumotlari asosida shallantiriladi.

#### **4.1.2 O'z vaqtidaligi**

Ma'lumotlar yilda bir marta hisobot davridan keyin 5 oydan kechikmasdan e'lon qilinadi.



## 4.2 Qiyosiylik

### 4.2.1 Ichki qiyosiylik

Tasdiqlangan va tarqatilgandan so‘ng, statistik qatorlar qayta ko‘rib chiqilmaydi.

### 4.2.2 Vaqt bo‘yicha qiyosiylik

Ma‘lumotlar 2010- yildan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy saytida joylashtirilgan. (<http://stat.uz/>).

### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o‘rtasidagi qiyosiylik

Ma‘lumotlar Davlat statistika qo‘mitasiga korxonalar va tashkilotlardan kelib tushadi.

## 4.3 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish

### 4.3.1 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish jadvali

Ko‘rsatkichni shakllantiruvchi ma‘lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatda ko‘rsatiladi.

### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash

Yakuniy ma‘lumotlar tarqatiladi

### 4.3.3 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalarni tarqatish

Agar ilgari e‘lon qilingan ma‘lumotlar aniqlangan bo‘lsa, qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlar keyingi nashrlarda taqdim etiladi. Qayta ko‘rib chiqilgan (yakuniy) ma‘lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi nashrlari orqali tarqatiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma‘lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma‘lumotlarni taqdim etish

Hisobot yili uchun ma‘lumotlar tarqatiladi.

Statistik nashrlarda axborot “Transportning asosiy ko‘rsatkichlari” byulleteni, jadval va grafik ko‘rinishida taqdim etiladi.

#### 5.1.2 Ma‘lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

##### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

“Transport va aloqa”, “O‘zbekiston hududlarining statistik yilnomasi”, “O‘zbekiston raqamlarda”

#### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Statistik nashrlarda ma'lumotlar "Transportning asosiy ko'rsatkichlari" byulleteni ko'rinishida taqdim etiladi.

#### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Statistik nashrlarda ma'lumotlar "Transportning asosiy ko'rsatkichlari" byulleteni, jadval va grafik ko'shklida taqdim etiladi.

#### 5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilar so'rovlari bo'yicha maxsus jadvallar.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Statistik nashrlarda ma'lumotlar jadval va grafik shaklida taqdim etiladi.

### 5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyin 5 oydan oshmagan davrda e'lon qilinadi.

### 5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Har yili - hisobot davridan keyin 5 oydan oshmasdan.

### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konseptiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida. (<http://stat.uz/>).

## 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

### 5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida. (<http://stat.uz/>).

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Davlat va idoraviy statistik kuzatuv (shakllar)ini takomillashtirish.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Davlat va idoraviy statistik kuzatuv (shakllar)ini takomillashtirish.

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Davlat va idoraviy statistik kuzatuv (shakllar)ini Davlat statistika ishlari Dasturida belgilangan muddatlarda takomillashtirish.

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshiriladi.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshiriladi.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

|  |   |
|--|---|
| F.I.O.:                                  | Mirzaxidov Abdug'ofur'Yuldashevich        |
| Lavozim:                                 | Boshqarma boshlig'i                       |
| Bo'linma:                                | Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi |
| Idora:                                   | Davlat statistika qo'mitasi               |
| Manzil:                                  | Mustaqillik shox ko'chasi 63              |
| Shahar/region:                           | Toshkent shahri                           |
| Mamlakat:                                | O'zbekiston Respublikasi                  |
| Pochta indeksi:                          | 100170                                    |
| Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam | 998712028059                              |
| Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam    |   |
| Elektron manzil:                         | a.mirzaxidov @stat.uz                     |